

## Alisher NAVOIY

# HOLOTI SAYYID HASAN ARDASHER

### BISMILLOHIR-RAHMONIR-RAHIM

*Lutf aylabon, ey nasimi quds<sup>1</sup> osor,  
Bir qatla fano<sup>2</sup> gulshaniga ayla guzor.  
Ahbobj'akim toptilar ul yerda qaror,  
Mendin yer o'pub arzi niyoz et zinhor.*

Soliki fonyi va gavhari koniy, orifi maoniy. Sayyid Hasani Ardasher<sup>3</sup> (Rahmatullohi) siyar va holotida.

Alarning otasi Ardasher Boysung'ur mirzo<sup>4</sup> mulozimi erkandur. Qushchiliq<sup>5</sup> shevasida mulozamat qilur erkandur. Ul fanda g'oyati muloyamat va nihoyati mahoratdin qushbegilik mansabig'a yetibdur, balki mundin dag'i ko'p biyikrak manosib kasb etibdur.

B a y t:

*Ko'p hunarliq kimsa shahlarg'a etar damsozliq,  
Qush tilin bilgan Sulaymon<sup>6</sup>g'a etar hamrozliq.*

<sup>1</sup> Quds – arabcha poklik, tozalik, muqaddas demakdir. Nasimi Quds - poklik shabadasi. Bu yerda shoir undan avval o'tgan do'stlar, suhbatdoshlar yotgan joyga borib, yer o'pib, salom yetkazgil, deya iltijo qiladi.

<sup>2</sup> Fano – yo'q bo'lism, o'lism; tasavvufda o'zlikni yo'qotib, butun borliqdan kechib, ilohiyatga singishdir.

Fano gulshani – mozoriston.

<sup>3</sup> Solik – birorta tasyavvuf maslagiga mansub shaxsdir. U ollohga yaqinlashish tolibi bo'lib, bu niyatida tug'ilgandan vafotiga qadar bo'lgan yo'lni bosib o'tadi.

Sayyid Hasan Ardasher – Alisher Navoiyning do'sti, mas-lakdoshi va otasi o'rnidagi murabbiysi. Navoiy u bilan 860/1455 – 56 y. da bиринчи мarta uchrashadi. Bu voqeа Alisher Mashhadga borib, Abulqosim Bobur shoh xizmatiga kirgan vaqtarda sodir bo'ladi. Navoiy Sayyid Hasanning hayoti so'nggiga qadar u bilan ota-boladek munosabatni saqlaydi va uning vafotidan 2 yil o'tgach, maxsus risola yozib, xotirasini abadiylashtiradi. Sayyid Hasan vafoti vaqtida Hirotda bo'limgan Navoiy g'oyat ta'sirli marsiya ham yozgan edi.

Risolada Hirotda madaniy adabiy hayotining ko'rakli vakili bo'lgan keng ko'lamli bilimlar egasi, shoir va go'zal insonning ma'lum darajada ijodiy portreti yaratilgan hamda muallifning unga bo'lgan behad hurmati, samimiyy munosabati o'z aksini topgandir.

<sup>4</sup> Boysung'ur mirzo (1397, Hirotda – 1434 o'sha shahar) – Temur nabirasi, Shohrux o'g'li Ulug'bek mirzoning ukasi. Mozandaron, Astroborod va Jurjon hokimi, keyinchalik otasining vaziri bo'lgan. Boysung'ur mirzo g'oyat ma'rifatparvar shoh bo'lib, Hirotda nihoyatda boy kitobxona tashkil qilgan. U kotib, musavvir, naqqosh, sahhof, zargar ustalarini yig'ib, ularga homiylik qilgan. Boysung'ur mirzo tashabbusi va ishtirokida Hirotdagi olim va kitobat san'ati namoyondalari Firdavsiy «Shohnoma»sining 40 ta qo'lyozmalari asosida mukammal matn tuzganlar, uni juda go'zal nastaliq xatida ko'chirib, nafis miniatyurlar bilan bezaganlar. Boysung'ur mirzo unga mufassal so'z boshi ham yozgan. Mo'tabar va nodir qo'lyozma Tehrondagi «Kohi Guliston» muzeyi fondida Alisher Navoiyning tabarruk dasxati bilan («Navodir un-nihoya»matni) bir yerda saqlanadi.

<sup>5</sup> Qushchilik – ov qiladigan qushlarga qarovchi shaxs. O'rta asrlarda saroyda qushchilik lavozimi ham bo'lgan, qushchilar nufuzli shaxs hisoblanganlar.

<sup>6</sup> Sulaymon – Tavrotga ko'ra shoh, Qur'oni majidda esa, payg'ambar deyilgan. Sulaymon payg'ambar haqida juda ko'p rivoyat va qissalar mavjud. Ularda Sulaymon aqlu idrokli, tadbirkor bo'lgan. Uning sehrli uzugi bo'lib, ana shu uzuk (xotam) vositasida hammani o'ziga muti' qila bilgan. Uning taxtini go'yo shamol ko'tarib yurgan. U Sabo malikasi Bilqisga uylangan. Sulaymon qushlar, insu jinlar tilini bilar ekan. Qur'onning 44-surasida Sulaymon haqida 11 – 12 oyatlarda so'z ketadi.

Alisher Navoiy «Nasoyim ul-muhabbat»da Sulaymon binni Dovud alayhimus-salom sarlavhasi ostida mufassal fiqra beradi va uning karomatlarini bayon etadi.

Bu yerda Navoiy Sayyid Hasan otasining ko'p hunarlar egasi ekanligini Sulaymon payg'ambarga o'xshatmoqda.

Ammo o‘zlari ham ul otalari mulozamati va mutobaatida Boysung‘ur mirzo xizmatlarida bo‘lubturlar va kichik yoshdin o‘qumoq va bitmakka tab’lari muloyim va moyil ermish.

B a y t:

*Chun tab’i mulonim bo‘lur o‘rgangali moyil,  
Oz vaqtda ko‘p nav’ qilur kasbi fazoyil.*

Chun alar kichik yoshdin fazoyilu kamolot iqtisobig‘a avqotlarin sarf qilur ermishlar. Bot abnoyi jinsdin har bilik bobida mumtoz, balki ko‘prak zamonning tab’ va fazl ahliga foyiq va sarafroz bo‘lubdurlar:

Ammo adab va hilm va tavozu’ va xayo zotlarig‘a aningdek - g‘olib ermishkim, bu mujmalmazkur bo‘lg‘on fazoyildinki, tafsili: sarf va nahv<sup>7</sup> va lug‘at va arabiyat<sup>8</sup> va mantiq<sup>9</sup> va kalom<sup>10</sup> va fiqh<sup>11</sup> va hadis<sup>12</sup> va tafsir<sup>13</sup>dur va soyir tasnifot, misli: she’r va muammo<sup>14</sup> va ta’rix<sup>15</sup> va nujum va advor<sup>16</sup> va musiqiy bo‘lg‘ay agar ba’zi majolisda so‘z o‘tsa erkandur, bovujudn ulki, majlis ahlining ko‘pidin yaxshiroq bilur erkandurlar ham hayo va adab jihatidin, ham birovga, ilzomu xijolat yetmasun deb, ko‘p so‘z aytmas ermishlar, balki ko‘p majolisda takallum ham qilmas ermishlar.

Bu hamida xisol va pisandida af’ol jihatidin yaxshi v.a yamon ahli zamon qoshida azizu mukarram va muhtaram bo‘lur ermishlar.

B a y t:

*Pok gavharki, bo‘ldi pok shior,  
Shohlar boshi ustida yeri bor.*

Ul podshoh bu holotlaridin alarg‘a farzandona iltifotlar qilur ermish va o‘zining ba’zi farzandlarigakim, ba’zi holoti ko‘ngliga yoqmas ermish, alarning qiliqlaridin taassuf yeb, der

<sup>7</sup> Sarf va nahv – a: grammatikaga oid ilmlar nomi; nahv – sintaksisni anglatgan.

<sup>8</sup> Arabiyat – arab tili va adabiyoti.

<sup>9</sup> Mantiq – ilmnинг nomi; logika.

<sup>10</sup> Kalom – E’tiqod ilmi; Qur’oni majidga oid bilimlar;

<sup>11</sup> Fiqh – dinning yo‘l-yo‘riqlari, qoidalari haqidagi huquq ilmi;

<sup>12</sup> Hadis – Muhammad payg‘ambar (a.s.)ning so‘zlari, aytganlari.

«Hadis» va «sunnat» so‘zlari muhaddislar o‘rtasida bir ma’noda qo‘llanilib, payg‘ambarning aytgan so‘zlari, fe’l atvorlari, taqdirlari va payg‘ambarlikka qadar bo‘lgan hamda payg‘ambarlik yillardagi siyratlarini, ya’ni hayat yo‘llarini anglatadi. (Hadis, 1991 y. 3-bet).

<sup>13</sup> Tafsir – a.: biror narsaning atroflicha, ochiq va aniq bayon qilish. Bu islom ilmlaridan bo‘lib, diniy tushuncha, atamalarni tushuntirib berishga oiddir.

<sup>14</sup> Muammo – a.: yashiringan, berkitilgan demakdir. Muammo sharq she’riyatida kichik lirik janr turlaridan biridir. Misra’, birikki baytda (ba’zan jumla, ibora yohud bir so‘z ham bo‘lishi mumkin) ism yoki biror so‘z yashiringan bo‘ladi. Muammo matnida esa, unga murakkab imo-ishoralar bo‘ladi. Muammoni maxsus qoidalarga asosan (unga ramz, imo, kinoya, o‘xshatish, so‘z o‘yini) arab alifbosidagi harflar nuqtalarini almashtirish, so‘zlarining boshqa tillardagi sinonimlarini topish, teskari aylantirish yoki «abjad» hisobi (harflarning raqam ma’nolari) va h. k. yo‘llar bilan topib olib, yechish kerak bo‘ladi. Muammo tuzish, uni yechish qoidalariiga bag‘ishlangan maxsus risolalar yaratilgan. Ayniqsa XV asrda muammo keng tarqalgan. Jomiy va Navoiy ham muammo haqida asarlar yozganlar.

<sup>15</sup> Ta’rix – sodir bo‘lgan biror voqeani anglatadi. Sharq she’riyatida bu kichik lirik janr bo‘lib, ana shu voqealarni nazmda (ba’zan nasrda ham) harflar vositasida beriladi. Bunda har bir harfning raqam ma’nosi, ayrim so‘z yoki harflarni chiqarib tashlash yoki qo‘shish yo‘li bilan ta’rix moddasi beriladi. Shunday ta’rix she’rlar ham borki, ulardan birinchi bayt harflari yig‘indisidan she’r bag‘ishlangan shaxsnинг tug‘ilgan yili, ikkinchisidan uning vafoti yili chiqariladi. Masalan, Navoiy vafotiga sohib Doroning marsiya – ta’rix shundaydir.

<sup>16</sup> Advor – davrning ko‘pligi, musiqa nazariyasiga oid ilm.

ermishkim: «Ne bo‘lg‘ay, sening af’olu hisoling ham falonig‘a o‘xshasa erdi!» Va bu so‘zdin g‘arazi alar ermishlar.

Va falak qazosidin va ro‘zgor havosidin andoqli, o‘zga podshohlar yana bir mulkka azimat qilibdurlar, ul podshoh dag‘i alarg‘a payravliq tariqin bajo kelturdilar va alarning otasi ham o‘zga yerga qadam urdi.

F a r d:

*Ketarg‘a kelur muncha shohu gado,  
Agar xud o‘g‘uldur va gar xud ato.*

Alar zohir ulumi ishtig‘olidin farog‘at topibdurlar. Sipohiyliq<sup>17</sup> din mutanaffir ermishlar.

Ammo alarning bori podshohzodalarikim, Boysung‘ur mirzoning o‘g‘lonlari bo‘lg‘ay, misli: Alouddavla mirzo va Sulton Muhammad mirzo va Bobur mirzo bir-biridin so‘ngra mutaoqibki, taxtg‘a o‘lturubdurlar, har qaysialarning rioyat va tarbiyatig‘a mashg‘ul bo‘lubturlar, Alar xizmat va taraddudidin ibo qilibdurlar va ijtinob kurguzubdurlar. Va haddin o‘tgandin so‘ngra andoqli, shabob ayyomining iqtisozidur, o‘zlarin may ichmakka va lavandvashliqlarg‘a va oshiqpeshaliqlarg‘a solibdurlar. Chun zot va ko‘ngullari va tiynatlarn arig‘liqqa mushohid va muqarrar ermish, zamonning asil mirzozodalari taraddud va ijobsiz va tahoshiy va iztirobsiz alar bila musohib bo‘lur ermishlar va alarning suhbatin mug‘tanam tutar ermishlar.

N a z m:

*Foniyyasheki, ham so‘zidur pok, ham o‘zi,  
Xush davlat ul kishigaki tushgay aning ko‘zi.*

Boysung‘ur mirzo zamonidin Bobur mirzo zamonining oxirig‘acha bir qarng‘a yaqin ko‘prak avqotlarin betaayyun o‘tkaribdurlar.

Saltanat taxti Sulton Ibrohim mirzo<sup>18</sup>g‘a qaror tutgandakim, tarix sekkiz yuz oltmis erdi, bu faqir alar suhbatig‘a musharraf bo‘ldum. Alar tariq va ravishi bu faqirni andoq shefta qildikim, bir kun alar mulozamatig‘a yetmasam erdi, sabru toqatim qolmas erdi va alar ham kelib ahvol so‘rarlar erdi: «tashvishe bo‘lmamish bo‘lg‘aykim, bukun sendin xabar topa olmaduq».

Va bu faqirni faqr tariqig‘a dalolat va irshod qilurlar erdi va nazm ayturg‘a targ‘ib ko‘rguzurlar erdi. Chun ul avqotda faqirning nazmlari Xurosonda shuhrat tutub erdi, alar dag‘i iltifot qilib, ba’zi abyotni ko‘p o‘qurlar erdi va majolisda xushvaqt bo‘lurlar erdi Ul jumladin bu matla’durkim, fard:

*Furqatingdin za‘faron uzra to‘karmen lolalar,  
Lolalar ermaksi bag‘rimdin erur par golalar.*

Yana bir bukim:

*Ul parivashkim bo‘lubmen zoru sargardon anga,  
Ishqdin olam manga hayronu men hayron anga.*

Bu baytni dag‘i ko‘p o‘qurlar edikim:

<sup>17</sup> Sipoxiyliq – amaldorlik, hukumat xizmatida bo‘lish, harbiy yurish yoki mashvaratlarda qatnashish bunday xizmat doirasiga kirgan.

<sup>18</sup> Sulton Ibrohim mirzo – Shohrux mirzoning nabirasi.

*Labing ko‘rgach iligim tishlaram har dam tahayyurdin,  
Ajab holatki, tutmay bolni barmoq yalaydurmen.*

Masnaviydin bu bayt yodlarida erdi:

*Har nechaki puxta bo‘lsa tadbir,  
Berur anga go‘shmol taqdir.*

Va turkigo‘y shuarodin Mavlono Lutfiy she’rlaridin abyot o‘qurlar erdi va bu matlain ta’rif qilurlar edikim:

*Nozuklik ichra belicha yo‘q tori gisuyi,  
O‘z haddini bilib belidin o‘lturur quyi.*

Va bu matlaig‘a dag‘i mu’taqid erdikim:

*Ulki husn etti bahona elni shaydo qilg‘ali,  
Ko‘zgudek qildi meni o‘zini paydo qilg‘ali.*

Va bu matlain ham o‘qur erdilarkim:

*Laylat ul-me’rojning sharhi sochi tobindadur,  
Qoba qavsayn ittihodi qoshi mehrobindadur.*

Mavlono Muqimiyning ul tarje’ig‘a mu’taqid erdilarkim:

*Sensen asli vujudi har mavjud,  
Sendin o‘zga vujudga ne vujud.*

Forsiy ash’ordin hazrati Xoja Hofiz Sheroyi<sup>19</sup> (qudisa sirrihu) devonig‘a ko‘p aqidalari bor erdikim, balkim ul devondin aksari alarnnng xotirida erdi va ko‘p abyot majolisda ul devondin mazkur qilurlar erdi va masnaviy jinsidin Shayx Muslihiddin Sa’diy Sheroyi<sup>20</sup> (rahmatullohuoli)

---

<sup>19</sup> Hofiz Sheroyi – (Alloh sIRRINI muqaddas qilsin) Shamsuddin Muhammad (1321, Sheroy – 1390 o‘sha shahar)buyuk fors shoiri. Qur’onni yod bilgani va yaxshi tilovat qilgani uchun «Hofiz» nomi bilan shuhrat qozongan va uni taxallus ham qilib olgan. Hofiz ham ishqı haqiqiy, ham ishqı majozin haqida yonib yozgan shoirdir. G‘azal janrini yuksak badiiy saviyaga ko‘targan Hofiz devoni uning vafotidan so‘ng tuzilgan. Alisher Navoiy Hofiz she’riyatini g‘oyat qadrangan va o‘zining forsiy devonida unga ko‘plab yozgan javob va tatabbu’lari keltirilgandir. «Nasoyim ul-muhabbat»da Navoiy hofiz she’riyatining xususiyatlari haqida shunday yozadi: «Alfoz latiflig‘i va tarkib pokizalig‘i va ado salosati va latofati va ma’ni g‘ariblig‘i choshnisida xud alarni ta’rif qilmoq hayot so‘yin jonbaxshliqqa ta’rif qilgandek bo‘lg‘ay».

<sup>20</sup> Sa’diy Sheroyi – (Unga Allohinng rahmati bo‘lsin) Muslihuddin Abu Muhammad Abdulloh ibni Mushrifuddin (1203, Sheroy – 1292, o‘sha shahar) fors shoiri, adibi va mutafakkiri. Dastlabki tahsilni Sheroyda oladi va Eron mo‘g‘ullari tomonidan zabit etilgach, Bag‘dodga borib, «Nizomiya» va «Mustansiriya» madrasalarida o‘qiydi. U yerda arab tili va adabiyoti, Qur’oni karim, Hadisi sharif va tasavvufni o‘rganadi. Sa’diy Sharq mamlakatlari bo‘ylab 20 yil safar qiladi. Safarda u asosan voizlik qiladi, va’zlarida axloqu adab, hikmat, hayotiy masalalar yuzasidan maroqli hikoyatlar keltiradi. Sa’diy «Guliston» (nasr va she’rda), «Bo‘ston» (nazm), lirik she’rlar – devon muallifidir.

Alisher Navoiy «Devoni Foni» dagi g‘azallarining ma’lum qismini Sa’diy g‘azallariga tatabbu’ tarzida yozgan. «Nasoyim ul-muhabbat»da Sa’diyning she’riyatini Navoiy quyidagicha ta’riflaydi: «G‘azalgo‘y akobir va shuaro ollida mundoq muqarrardurkим, g‘azal tavrig‘a Shayx muxtari’durlar (ixtiro’chi), jonso‘xtalar va ishqibozlарg‘a va dilafro‘xtalarg‘a va jongudozlарg‘a filvoqe’ g‘arib haqqе sobit qilibdurlar».

«Bo'ston»<sup>21</sup> »ig'a mu'taqid erdilar va hazrati Shayx Farnduddin Attor<sup>22</sup> (quddisa sirrihu) ning «Mantiq ut-tayr»<sup>23</sup> ining ko'pragini yod bilurlar erdi va ko'p o'qurlar edi va ko'p so'z xotirlarida bor erdi. Bataksis «Kimiyo saodat»<sup>24</sup> din va Shayx Aziz Nasafiy<sup>25</sup> (quddisa sirrihu) rasoilin ham ta'rif qilurlar erdi va andin so'zlar naql qilurlar erdi.

Va zamonning shuarov va fuzalov va zurafosidin alarning visoqi xoli ermas erdi, balki darveshlar va ahluloh dag'i doim alarning uyin musharraf qilib, suhbat tutar erdilar, Va shahrning sozanda va xonanda va go'yandasi doim alar suhbatida. hozir bo'lurlar erdi. Bu mazkur bo'lg'on zurafodin hargiz yo'q erdikim, alarning manzilida kishi bo'limg'ay, balki bu toifanining majmai alarning visoqi erdi va bu jamoat doim anda.

### B a y t:

*Xush ulkim, anga lutf birla xudo,  
Ulusning qabulini qildi ato.*

Yigitlik ayyomidakim, rind<sup>26</sup>liq va lavandvashliqlar boshidur, bu toifa kunduz va kechalar alarning maskanidin chiqmaslar va barcha asbob alar uchun muhayyo erdi. Va ishrat va inshoot asbobidin boshqa borur chog'larida har qaysiga o'z xo'rди holig'a ko'ra uzrhohliqlar bila yegulikdin yo biror nima xarjidinkim, ul toifa qoshida kulliydur, rioyat qilib, mardumliq va insoniyat tariqi bila lutf ko'rguzur erdilarkim: «uy sizningdur, har qachon iltifot qilsangiz xizmatg'a turubmiz», deb uzaturlar erdi va alarning hamida axloqi om erdi. Ulug'-kichikka suchuk so'z va mufrit xulq zohir qilurlar erdi.

Va rindliq tavrida necha nima alarga dast berib erdikim, bu toifanining ozig'a moyassar bo'lub erkan; biri saxoy zotiykim, anda takalluf bo'limg'aykim, bazl va ziyofat vaqtida oz va ko'pning

<sup>21</sup> «Bo'ston» – Shayx Sa'diyning nazmda 1257 yilda yozilgan asari, qarayb 1000 baytdan iborat. Damashqda tugallangan bu asarni Sa'diy hukmron Abubakr ibni Sa'di Zaniy (1226 – 60) ga taqdim etgan. «Bo'ston» 10 bob va debochadan iborat. Unda muallif madrasalarda o'rgangan ilmlari, safarlarda to'plangan hayotiy tajribalari asosida odob, axloq, rasm-rusum, hikmatlarni qalamga oladi. «Bo'ston» «Sa'diy nomma» deb ham shuhrat qozongan.

Asarda o'sha davr uchun dolzarb bo'lgan siyosiy va ijtimoiy masalalar ham bayon etiladi va har masalaga hikoyat keltiriladi. «Bo'ston» shirin til, sodda uslubda yaratilgan. Shuning uchun ham bu asar qadimdan darsliklardan o'rin olib keladi.

<sup>22</sup> Fariduddin Attor – (Alloh sirrini muqaddas qilsin). Fariduddin Abuxolid Muhammad ibni Abubakr Ibrohim Nisho-puriy (1148 – 51/1219 – 21) – tasavvuf adabiyotining yirik namoyandas, nomi Muhammad, kunyasi (Abu, ibn, umm, bint kabi so'zlar bilan boshlangan laqab) Abuhamid, Fariduddin laqabi, «Attor» taxallusi uning kasbi koridan olingan. Attor qalamiga «Mantiq ut-tayr», «Asrornoma», «Musibatnomma», «Ilohiynoma», «Xusravnoma», «Muxtornoma», «Tazkirat ul-avliyo» asarlar mansub.

<sup>23</sup> «Mantiq ut-tayr» – (Qushlar suhbat) Fariduddnn Attorning asari, tasavvufning asosin g'oyalaridan vahdati vujudga bag'ishlangan. Attor vujudi mutloq bilan mavjudotlarning yagonaligini majoziy tarzda Simurg' va qushlar olamn timsolida tasvir qiladi. Haqiqatni topib, vahdatga yetishuv uchun chiqqan qushlar talab, ishq, ma'rifikat, istig'no, tavhid, hayrat va faqru fano vodiyalaridan o'tishi zarur bo'ladn. Oxirda 30 qush – simurg' qoladi. Dostondagi Shayx San'on qissasi irfoniy ishqning go'zal bayonidir.

Alisher Navoiy Attorning bu asarini yoshlida mutolaa qilib, yod ham olgan edi. Umrining oxirida bu asarga javoban «Lison ut-tayr» dostonini yozadi. Navoiy e'tirofiga ko'ra uni Attor asarining tarjimasi yo'sinida yaratgan.

<sup>24</sup> «Kimiyo saodat» – mashhur mutafakkir Muhammad G'azzoliyning 1094 – 1107 yillarda yozgan asari. Unda diniy, falsafiy, tasavvufiy masalalardan o'zni, haqni, dunyo ma'rifikati va oxirat ma'rifikatini tanish yuzasidan fikr bildiriladi. Shuningdek, ijtimoiy-axloqiy masalalar ham qalamga olinadn. Adolat tartibi, raiyat haq-huquqini muhofaza qilish, zulm va zolimlikni qoralash shular jumlasidandir.

<sup>25</sup> Aziz Nasafiy – (Alloh sirrini muqaddas qilsin) ibni Muhammad (taxm. 1240 Nasaf – taxm. 1300 Eron, Abrkuh) tasavvuf mutafakkiri, shoir. Ilk tahsilni ona yurtida olgach Buxoroga boradi va u yerda ilm o'rganadi. 1273 y. Aziz Nasafiy Eronqa, Isfaxon va Sherozga safar qiladi va Abrko'h degan joyda muqim bo'lib qoladi. Olimning «Maqsad ul-aqso» (Uzoq maqsad), «Tanzil ul-arvoh» (Arvohning tushishi), «Kashf ul-haqoyiq» (Haqiqat kashfi), «Manzil us-sayirin» (Sayr qiluvchilarning manzillari) va boshqa asarlarida tasavvufning turli-tuman masalalaridan bahs yuritiladi. Chunonchi, u ishq, fano, baqo, zikr, haqiqat, ma'rifikat kabi tasavvufning axloqqa oid masalalarini ham qalamga oladi. Olimning asarlarini avombop uslubda, sodda tilda yaratilganligi uchun xalq orasida keng tarqalgan.

<sup>26</sup> Rind – bu so'zning lug'aviy ma'nosi Shariat qoidalarini johillik yuzasidan emas, ongli sur'atda, ziyraklikdan inkor qiluvchi odamni anglatadi. U barcha olam davlatu shukuhlarini rad etadi, o'zini ozod tutadi, may ichadi, hur fikr bo'ladi.

tafovuti ko‘runmag‘ay va o‘zidin elga ko‘p nima oz ham ko‘runmagay va eldin o‘ziga juzviy nima bag‘oyat ko‘p va kulliy ko‘runub, birga o‘n evaz yetkururning fikrida bo‘lg‘ay.

N a z m:

*O‘zidin elga daryo — qatra oso,  
Vale eldin o‘ziga qatra — daryo.*

Yana biri shafqati mufritki, borchalarni aziz tutqaylar va mo-amkana<sup>27</sup> riyotlarini vojib ko‘rgaylor va alardin har xato va zalal voqe’ bo‘lsa muvoxazasig‘a mashg‘ul bo‘limg‘aylar va islohid‘a ko‘shish qilg‘aylar va sahvlarin afv qilib, yuzlariga kelturmagaylar, to alarg‘a xijolat voqe’ bo‘limg‘ay va alarni rifqu mudoro bila ul maqomdin o‘tgaylar.

B a y t:

*Bu ish erur valoyat ahli ishi,  
Qila olmas bu ishni o‘zga kishi.*

Yana biri: lutfu tavozu’ va adab va yumshoq so‘zkiem, bu barchadin azimroqdur.

Yana biri: tahammul va burdu borlikdurkim, har kishidan harna alarg‘a yetishsakim, filfoqe’ nafsi amrda qatig‘ bo‘lg‘ay, ani suhulat bila o‘tkarib, o‘ziga ko‘p taraddud yo‘l bermagaylar.

Yana biri: ko‘ngulning yumshoqlig‘ikim, dardmandona so‘zdin va nazmdin va nag‘madin mutaassir bo‘lg‘aylar va alarning ul hollari ashob va yoronlarg‘a asar qilg‘ay va bu — majlisning tuzi va malohatidur.

Yana biri: zotiy betakallufluqkim, filvoqe’ alar qoshida ipak bila palos orasida tafovut bo‘limg‘ay, balki mutakallaf liboslar makruh ko‘rungay va darveshona kiymakliq muloyimroq bo‘lg‘ay.

Bu sifatlarda haq subhonahu va taolo alarni komil xalq qilib erdi va rindliq va tajarru’ ayyomida soyir rindlardin ko‘prak ichar erdilar. Andoqli, ba’zi ikki qatla va ba’zi uch qatla mast bo‘lub, majlisdin chiqib, uyub, yana majlisg‘a kelurlar erdi va alar o‘z hollarida erdilar. Oqshomki, majlis ahli odasi bila usrub, uyur chog‘ bo‘lsa zrdi, alar birin-birin usruk boshig‘a yetib, mulozimliq elni mulozimlarig‘a topshurub, navkarsiz nomurodlarni muhofazat qilib, yonlari ostig‘a nima soldurub, boshlari ostida nima yastab, ilaylarig‘a ko‘zalik suv qo‘ydurub, ba’zining kafsh va dastorlarin va yog‘liqlarin va aning uchida tugunginasi bulsa, belguluklarin mulozimlarga topshurub, xotirlarin ul toifa jam’idin so‘ngra xuftan namozin ado qilib, o‘z hujralarida osoyishg‘a mashg‘ul bo‘lur erdilar. Bu majlis ishtig‘oli jihatidin hargiz alarg‘a namoz qasdan qazo bo‘lmadi. Va agar ba’zn kunlar alar suhabatida soda yuzluk yigitlar mast bo‘lguncha ichib, chun alar atvorig‘a ancha e’timodlari bor erdikim, o‘z uylaridin eminrak bilurlar erdi, ham yiqilsalar erdi, alarni atodek kishilarnnng amnobod uylariga yotquzub, qufl qildurub, mo‘tamad amin kishilar alar muhofazati uchun ta’yin qilib, eshikni ustidin bog‘latib, ul muhofizg‘a tashqaridin posbonliq buyururlar erdi. Va sabuhiy vaqtig‘acha bir-ikki qatla barcha usruk yotg‘on rindlardin o‘zlarini yurub xabar tutarlar erdi.

B a y t:

*Rindlardin bir aningdek yo‘q erur ogoh rind,  
Shoh edi rind ahlig‘a, balkim erdi shohi rind.*

<sup>27</sup> mo-amkana – imkon boricha, demakdir.

Va bu avqotdakim, bu nav' rindliqlarg'a murtakib erdilar, har namozda munojotlar qilib, haq subhonahu va taolodin o'zlarig'a tavba va tavfiq tilar erdilar. Va mutabarrak mazorotg'a borib, aziz darveshlar va ahlulloh majolisig'a yetib, o'z maxlaslari uchun fo-tihalar daryo'za qilur erdilar va ul buzurgvorlarkim, alar xizmatig'a musharraf bo'lurlar erdi — qabul va iltifot nazarlari topar erdilar.

Ul jumladin biri Mavlono Boyazid Puroniy erdi va Hazrat Bahovuddnn Umar (quddisa sirihu) erdi, Hazrat Xoja Abu Nasr Porso (rahmatullohu taolo) va Xoja Muhammad Kusaviy (quddisa sirihu) va Shayx Ziyoratgohiy<sup>28</sup> (alayha rahma) va zamonning ma-shoyix va darveshlarining aksarining mulozamatlarig'a yetib, suhbatlarig'a musharraf bo'lub, maxsus iltifot va nazarlar toparlar erdi. Chun o'zlaridag'i faqru fano tariqi akmal vajh bila zohir erdi, bu toyifaning so'zlarig'a tab'lari muloyim. Mazkur bo'lg'on azizlar dag'i alarning suhbatin tilar erdilar va alarning muddaosyg'akim, tengri yo'lig'a kirmak, erdi, balki intizor tortar erdilar.

Asrning ulamo va ashrof va aimmasi bila doim musohib erdilar va chig'atoy ulusining oliy miqdor beklari ulcha yoshg'a va yo'lg'a alardin ulug' erdilar va ulcha teng erdilar, alarni sharafi nafs jihatidin o'zdin ulug' tutub, anga ko'ra ta'zim qilurlar erdi. To ul vaqtg'achakim, Sulton Sohibqiron Xuroson taxtin oldilar, chun mulknинг mutaayyin xalqi podshoh xizmatig'a musharraf bo'ldilar. Alar dag'i hamul dastur bila podshohning muborak diydorng'a ko'zlarin munavvar qildilar. Podshohning muborak xotirig'a alarning mulozamati yoqti va suhbatu so'zi bag'oyat xush keldi va inoyati mutaoqib qildilar. Alar podshohning xotiri uchun andoq taraddud va ixtilot va mulozamat qildilarkim, podshohning ko'ngul qushin sayd qildilar, chunki yaxshi mulozimlardin yaxshiroq, zaruriyaroq hech nima bo'lmas. Bataksis, mulozimkim, alardek muncha hamida xisolg'akim, mazkur bo'ldi, muttasif bo'lg'ay.

Har oyinakim, ulug' manosib taklifi voqe' bo'ldi, chun podshoh alarni podshohona rioyerlar va darveshona yumshoq va chuchuk so'zlar bila sayd qilib erdilar, yo'q deya olmadilar. Ish ul yerga yettim, sultanat korxonasining mustashori bo'ldilar va mulku mol ishiga daxl qildilar va andoq suluk voqe' bo'ldikim, podshoh shokir va soyir xaloyiq va raoyo alarning zikri xayrig'a zokir bo'ldilar va podshoh xilvatnda anisu mahram va anjumanda rafiqu hamdam erdilar.

Xuroson mulkinining kulliy ixtiyorin podshoh alarning soib rayig'a va tadbiri mulk oroyiga vobasta qilg'udek erdikim, chun alarg'a faqri zotiy va fanoyi jibilli<sup>29</sup> mavjud erdi va yoshlari oltmisidin o'tub erdi va zotiy munosabat mayliga g'olib bo'ldi va asliy maqsudi shavq tug"yon qila boshlab, mulozamat tariyqidin istig'for zohir qildilar. Va filvoqe' holiq ibodatining tarki va maxluq bandalig'ining ishtig'olikim, ayni beboklik va mahzi beoqibatlig'dur, andoq ish ilayg'a kelurkim, devsorlarning tahammuli qolmas, to malakosorlarg'a va farishtakirdorlarg'a ne yetgay.

### B a y t:

*Dunyoki qatig' durur garonborlig'i,  
Qattig'roq aning ulusining yorlig'i,  
Ko'prak nimakim, bo'lsa giriftorlig'i,  
Ko'prak kelur el ollig'a dushvorlig'i.*

Voy, dunyo shug'lining ibtilosidin! Va yuz ming voy, dunyo ahlining zulmu jafosidin, balki malolat va izosidin! Oh, zamon javru bedodidin! Nauzu billoh, abnoyi zamon qasdu ifsodidin! Qalam jardai xushxiromining inonin bu ravishdin uyurmak kerak, yo'q ersa, inoni ixtiyorni ilikdin olib, so'z uzar va maqsudum bozorin bizar,

<sup>28</sup> O'sha davrdagi taniqli shayx va darveshlar. Ular naqshbandiya buzurglaridan bo'lib, Sa'duddin Koshg'ariy yaqinlari hisoblanganlar.

<sup>29</sup> Jibilli - a.: tug'ma, tabiiy demakdir.

Alqissa; uchun alarg‘a haq yo‘lining suluki domangir bo‘lub, mulozamatdin ijtinob zohir qilib, istig‘for tariqidin kirib, arzg‘a yetkurdilar. Podshohg‘a bu amr mahol ko‘runub, ibo zohir bo‘ldi, alar tazallum va tazarru’ og‘oz qildilar. Hech nav’ bila maqbul tushmadi va alar ikki yilg‘acha podshohning muborak xotiri uchun cheriklar mashaqqatin tortib safarlar balosig‘a o‘zlarin solib yurudilar va in’omu ulufa<sup>30</sup> mutlaqo olmadilar va darveshona kisvat bila mulozamat qilurlar erdi.

Podshohi islompanoh chun ko‘rdilarkim, alar borasida kuch bo‘lg‘udekdur, tahqiq bildilarkim, haq yo‘li va ibodatining sheftasi bo‘lubturlar, bovujudi muncha qatla maxsuslardin alarg‘a inoyat va muhabbat yuzidin mulozamat tariqida iltimos voqe’ bo‘ldi, chun. alar podshohi haqiqiy<sup>31</sup> qullug‘inyng mubtalosi bo‘lub erdilar, foyda bermadi.

B a y t:

*Yor ko‘yida yuzida mubtalo bo‘lg‘on netar,  
Gulshan ichra gulni, balkim, jannat ichra xorni?*

Chun podshoh ulcha imkonи bor, iltimosda mubolag‘a qildilar. Ko‘rdilarki, alarning giriftorlig‘i andoq yerda ermaksi, o‘zluklari bila yo birovning sa'y va ehtimomi bila xalosliq mumkin bo‘lg‘ay. Ko‘rdilarki, ortug‘roq mubolag‘a voqe’ bo‘lsa, zulm bo‘lg‘udekdur, rahm qildilar va chorasisiz ruxsat voqe’ bo‘ldi.

Ul kunki, bu ruxsat ishi surat bog‘ladi — g‘arib kun erdikim, podshoh zor yig‘laydur erdi va alar xud zor-zor yig‘laydurlar erdilar. Va sultanat majlisi huzzorig‘a ham bu hol erdi, nevchunkim, borchal xalqg‘a alardin kerak erdi.

Alqissa, chun alar navkarliq balosidin va sipohiliq ibtilosidin tengri inoyati bila xalos bo‘ldilar, cherikdin qaytib, shahrda sokin bo‘ldilar va ul avqotda janobi haqiqatmaob, qutbi doirai haqiqat va murshidi ahli shariat va tariqat, koshifi ulumi rabboniy Mavlono Shamsuddin Muhammad Tabodgoniy<sup>32</sup> (qaddasallohu ruhoh ul-aziz<sup>33</sup>)ki, hazrati shayxul-mashoyix olimil-murshidi tavoifil-umam shayx zaynul-millati vad-din al-Xavofiy<sup>34</sup> (rahimahumullohu taolo)ning ixtiyoriy xulofosidin erdilar, irshod masnadida toliblar va muridlar takmilig‘a mashg‘ul bo‘lur erdilar, barcha asbobi suvariyni barham urub, ul buzurgvor xizmatig‘a borib, faqr tariqin ixtiyor qildilar va necha yil alar suhbat va mulozamatlarida suluk qilib, xonaqohlarida azim arbainlar chiqardi<sup>35</sup>lar va faqru fano sulukida kulliy manozillar qat’ qildilar va ulug‘ martabalar va biyik maqomlarg‘a qadam qo‘ydilar va alarning suluk va muomalalarin ul xonaqoh ahli, darveshlar — borchal musallam tutub, izhori irodat va ixlos qilurlar erdi.

Ittifoqo, bu faqirning manzili ul darveshlar xonaqohlari javorida voqe’ bo‘lub erdi va ul yerdinkim, iltifoti zotiysi bu faqir bila bor erdi va farzand deb erdilarkim, o‘z havlim go‘shasida alar uchun bir muxtasar maskane alohida tartib qilib erdim, gohiki, mufrat riyozaatlardin tab’larig‘a kalole voqe’ bo‘lsa erdi, xotirlari tashxizi uchun ul maskang‘a kelib, bir kun-ikki kun turub, yana xonaqohg‘a o‘z xilvatlarig‘a borurlar erdi.

<sup>30</sup> Ulufa – a.: amaldorlarga davlat tomonidan belgilangan maosh va oziq-ovqat.

<sup>31</sup> Podshohi haqiqiy – Olloh nazarda tutiladi.

<sup>32</sup> Shamsuddin Muhammad, Tabodgoniy – mashhur shayxlardan. Alisher Navoiy o‘zining «Nasoyim ul-muhabbat» asarida uning fazilatlari haqida yozadi va asarlarini sanab o‘tadi. «Asmoulloh» (Ollohning ismlari), «Tazkirat ul-habib» (Do‘stning tazkirasи) va «Vasoyo» (Vasiyatlar), «Arba’in» (qirq), «Qasidai Burda»ga muxammas, Ansoriyning «Manozil ussoirin»iga sharh va boshqalar. Alisher Navoiy o‘ziga nisbatan Muhammad Tabodgoniyning alohida iltifoti bo‘lganini e’tirof etadi.

<sup>33</sup> a.: Uning aziz ruhini Alloh muqaddas aylasini.

<sup>34</sup> Al-Havofiy – Shayx Zaynuddin Abubakr al-Xavofiy. Zohiriy va botiniy bilimlarni mukammal bilgan shayxlardan. Vafoti – 838/1434 – 1435.

<sup>35</sup> Arba’in chiqarmoq – toat-ibodat qilib, chilla o‘tirmoq demakdir.

Alarning avvalg‘i arbaini bu faqir hazrati Mavlono Muhammad Tabodgoniy (quddisa sirruhu) mulozamatlarig‘a borib erdim, alar holidin so‘rdum, dedilar: «bu kun bir maqomdadurlarki, solik avvalg‘i arbainda ul maqomg‘a yetsa, darde aning olig‘a kelurkim, agar buqoi mufrit yuzlansa, ishining guftorig‘a dalolat qilur, alarg‘a bu hol yuzlanibdur va bag‘oyat umidvorlig‘laredur».

*Uyla oshiqki, hijrondin ko‘rub dardu malol,  
Shodlig‘din yig‘lag‘ay, topqonda davroni visol.*

Bu faqir alarning xilvatlari eshigiga bordim: g‘arib hoy-hoy yig‘lamoqda erdilar, hech nima dey olmadim va mutaassir bo‘lub, yig‘lab qaytdim.

Bu faqir fuqaro ahli, darveshlar va ahlulloh mulozamatig‘a ko‘p yetibmen, faqir tariqida alardek oz ko‘rubmen.

Sayyid Muhammad alarning yolg‘uz farzandi erdi. Adabu tavozu’ va hilmu hayo tavrida ul otag‘a munosib o‘g‘ul erdi. Tab‘i xo‘b va surati mahbub va axloqi hamida va atvori pisandida, o‘n to‘rt yoshda tolibi ilmlig‘i shogird kitobliqg‘a yetib erdi. Hirot xalqining o‘z tavrida yagonasi va nodirasi erdi. Bu sinnda anga qazo yetti. Aksar ani tanir-bilur el o‘zni sohib azo tuttilar. Bataxsis, bu faqirkim, ani farzanddek ulg‘aytib erdim, alarg‘akim, asl ota erdilar, aslo tafovut qilg‘oni ma’lum bo‘lmadi. So‘zları bu erdikim, «Al-hukmu lilloh»<sup>36</sup> egasiga bizdin keraklik ekandur — eltti, umid uldurkim, rahmat qilg‘ay».

Ani chiqorur kun arig‘ to‘n kiyib, arig‘ dastor chirmab, motamiylarg‘akim, anduhu iztirob yuzidin beixtiyor yig‘lar erdilar, alar nasihat qilib, taskin berur erdilar, xususan bu faqirg‘a. To madfang‘a, bu faqir yasag‘on hazirag‘a elttilar, alar o‘zları sunnat tariqi bila maqbara ichiga tushub, aziz farzandni shar‘ vajhi bila oxirat yeriga qo‘yub, tengriga topshurub, talabi g‘ufron<sup>37</sup> uchun duolar qilib chiqtilarkim, hech nav‘ tag‘ayyur hollarig‘a zohir bo‘lmadi.

Na’sh bila borg‘on darveshlar va akobiru ashrofni hayrat lol qilib, taajjub behol qildi. Bu nav‘ fano va istig‘roq va havsala bashar xaylidin noma’lumdurkim, kimda bo‘la olg‘ay.

Alar der erdilarkim, dunyo johining mastlig‘i chog‘ir mastlig‘ig‘a o‘xshamaskim, chog‘ir mastlig‘i ichgan kundur, ammo joh mastlig‘i agar sohibi joh yillar joh ustidadurkim, mastdur, aning maxmurlig‘i johdin ma’zul bo‘lg‘onidadur. Ne muskir xamrdurkim, sarmastlig‘i odamiyni yillar o‘zidin bexabar qilg‘ay.

Bir kun bir taqrib bila ash‘yo orasida tafovut bobida fazl ahlidin birov bu mashhur baytni o‘qudukim,

B a y t:

*La‘l sang astu degi sangin sang,  
Lek andar miyon tafovuthost.*

Alar qoyilining maqsudining naqizi jonibdin so‘z boshlab dedilarki, shayxe aytbdurki, tosh qozon va la‘l — ikkalasi toshdur va lekin oralarida tafovut bor. Tosh qozondin g‘ayri naf‘ hech nima mutasavvar ermaskim, laziz va mulavvan at‘ima anda pisharkim, xosu om andin muntafe‘ bo‘lurlar va la‘ldin xaloyiqqa anvoi zarar mutasavvardur.

Va ittifoqo ul uchurda Sulton Abusaid mirzo<sup>38</sup> har kishida javohir bo‘lsa olib, bo‘lmasa tafahhusida mubolag‘alar qilib, elga anvoi izo va zarar yetkazib erdi. Va bu baytni o‘qug‘on majlisda ham tosh qozonda osh pishadur erdi.

<sup>36</sup> Al-hukmu lilloh – Ollohnning hukmi bilan.

<sup>37</sup> G‘ufron – kechirim, shafqat.

<sup>38</sup> Sulton Abdusaid mirzo – temuriylardan. 1451 – 58 yillarda Movarounnahr hokimi. 1458 – 69 yillarda esa temuriylar

Yana bir majlisda qarilig‘ning mashaqqatlarining bobida so‘z o‘tadur erdi, har kishi bir nima deydur erdi. Dedilarkim: qarilig‘da hech nimaning zavqi yigitlikdagicha ermas: g‘izodin va sharbatdin, hatto suvg‘a deguncha».

Bir ulug‘ kishi so‘rdikim: «barchani musallam tutduq, ammo suvning zavqi nechuk yigitlikdagicha bo‘lmaq‘ay? Har kishi suvsiz bo‘lsa xoh qari, xoh yigit suv ichgach, atashi daf’ bo‘lub, zavqe topar».

Alar dedilarkim: «Rost, zavq topar, ammo tafovut bor. Yigitlikda harorati g‘ariziy g‘olibdur, qariliqda ul harorat qolmas. Suvsiz kishining harnecha harorati g‘olib bo‘lsa, ul o‘tg‘a suv taskin berur. Ammo qarikim, g‘ariziy harorati<sup>39</sup> muntafiy bo‘lmish bo‘lg‘ay, atash anga g‘ariza haroratdin oriz bo‘lmay, ul suvni ichmish bo‘lsa, qachon andin zavq topg‘ay».

Mahrur mizoj yigitlar barcha musallam tutub, alarni bu hikmat so‘zlaridin ta’rif qildilar.

Hayotlarining oxirida haj safari muddaosin qildilar. Ammo ko‘p mavone’ paydo bo‘ldi va tuyassar bo‘lmadi.

Samarqandg‘a Hazrati Xoja Nosiruddin Ubaydulloh<sup>40</sup> sharafi suhbatlarig‘akim, zamon ahlining ko‘pi, xususan Samarqand ahli Xojani «Qutb»<sup>41</sup> g‘a nisbat berurlar erdi, musharraf bo‘lurg‘a azimat qildilar. Xoja bila necha kun suhbatlar tutub, ta’zim va tashriflar topib, yana Hirot shahrig‘a azimat qildilar. Va tarix sekkiz yuz to‘qson to‘rtda<sup>42</sup> — yetmish uch yoshlarida olamdin o‘ttilar.

Va alarning favti zamonida bu faqir shahrda yo‘q erdim. Podshoh hukmi bila bir sori borib erdim. Kelgandin so‘ngra, chun sohib azo faqir erdim, ta’ziyat qoidasin bajo kelturub, shahrning shimoli haddida tog‘ etagida alar uchun hazira yasadimkim, «Jo‘yi nav» suvi aning ichidin o‘tar, bag‘oyat biyik va xushhavo yerdur.

Va xeli azizlarkim, alarg‘a tiriklikda musohib erdilar va qabrlari parokanda yerdarda voqe’ erdi, yig‘ishturub, alar favorida qo‘yuldi. Bu jihatdin ba’zi azizlar ul yerni «Azizlar hazirasi»<sup>43</sup> debdurlar va bu ism mashhur ham bo‘lubdur.

Va alar favtining ta’rxi bu ab’yotdin hosil bo‘lur.

### T a ‘ r i x:

*Sarxayli fano Sayyid Hasan raft,  
Ki joi o‘bihishti jovidon bod.*

davlatining oliy hukmdori. U o‘zidan avvalgi shoh Abulqosim Boburga va unga yaqinlarga nisbatan g‘oyat qattiq qo‘l va zulmkor edi. Navoiy va uning tog‘alari Mir Said Kobuliy va Muhammad Ali G‘aribiylar Husayn Boyqaro xatti-harakatlari va intilishlarini qo‘llab-quvvatlaganlari uchun ularga souvuq munosabatda bo‘lgan. Abusaid ilm va san’at ahliga ham anchayin loqayd qaragan. Alisher Navoiyga bu hukmron bilan munosabatini yaxshilashdan ko‘ra Hirotni tark etish ma’qul tuyulgan va u Samarqandga ketgan edi. Shoирning Abusaiddan norozilik tuyg‘ulari uning «Sayyid Hasanga she’riy maktub» («Hasbi hol», «Masnaviy» deb ham yuritiladi)da o‘z aksini topgan. Bu asarda Navoiy o‘zining Hirotdan Samarqandga ketishini beixtiyor qilingan safar, deb e’tirof etadi. Bobur esa «bilmon ne jarima bila Sulton Abusaid Mirzo Hiridin ixroj qildi», deb ma’lumot beradi. Abusaid 1469 y.da Eronning G‘aribi qismlarini o‘ziga buysundirish maqsadida yurish qilib, Ozarboyjonda qatl etilgandan so‘ng Hirot taxtini Husayn Boyqaro egallaydi va Alisher Navoiy yangi hukmronning taklifi bilan paytaxtga qaytadi.

<sup>39</sup> G‘ariziy harorati – inson va hayvonlarda nafas olishdan paydo bo‘ladigan ichki harakatni bildiradi.

<sup>40</sup> Xoja Nosiruddin Ubaydulloh – Xoja Ahror Valiy nomi bilan mashhur bo‘lgan naqshbandiya ta’limotining mashhur namoyandalaridan. Samarqandda ta’lim olgan, 1428 yilda Hirota borib, Chag‘oniyonda Ya’qub Charxiy bilan uchrashib, uni o‘ziga ruhoniy pir qilib tanlagan. 1431 – 32 y. larda Toshkentda yashagan. Xoja Ahror siymosi va faoliyatiga qarash tarixshunosligimizda o‘ta salbiy bo‘lib kelgan va uni Ulug‘bek qatliga fatvo bergan g‘oyat mutassib din arbobi deya talqin etib kelingan edi. Hozir bunday qarash o‘zgarib bormoqda va Xoja Ahrorning ma’rifatli shaxs bo‘lgani va o‘z tasarrufidagi katta boylikdan el-yurt, mamlakat ehtiyojlariga sarflab turgani ishonchli manbalar asosida bayon etilmoqda. Sharqshunos olim A. N. Boldirev o‘zining oxirgi ilmiy tadqiqoti («Yana bir bor Xoja Ahror masalasiga doir»)da Xoja Ahrorga salbiy qarash hamma mavjud manbalar (manoqiblar, maktublar va uning o‘z asarlari) dagi ma’lumotlarni ob’ektiv tarzda hisobga olinmagani va tarixni sharoitdan uzib qaralgani sabab yuzaga kelganini birinchi bo‘lib isbotlab berdi. (Qarang: Xoja Ahror haqida. Toshkent, 1997. Ruschadan Suyima G‘anieva tarjimasi.).

<sup>41</sup> Qutb – a.: har bir narsaning o‘rtasidan o‘tgan o‘qning ikki uchini anglatadi. Majoziy ma’noda har bir jamoa yoki guruhning moddiy yo ma’naviy boshlig‘i, peshvosi, yo‘l ko‘rsatuvchisi.

<sup>42</sup> Sakkiz yuz to‘qson to‘rt yil hijriy – 1488/89 yil.

<sup>43</sup> «Azizlar hazirasi» – a.: atrofi ihotalangan joy. Bu yerda qabristondagi xilxonaning nomi:

*Pai on pokrav justand ta'rix,  
Biguftam: «Jannati pokash makon bod»<sup>44</sup>.*

---

<sup>44</sup> Tarj: Foniylit yetakchisi Sayyid Hasan ketdi. Uying mangu jannat bo‘lgay! U pokiza zot vafotiga ta’rix qidirdilar. Men «pok jannat makoni bo‘lg‘ay!» deb ta’rix tushirdim. Aslida «jannati pokash makon bod» jumlesi ta’rix moddasi bo‘lib, abjad hisobida 894/1488 – 89 yil chiqadi.